TARBIYA-INSON KAMOLOTINING ASOSI.

Samarqand viloyat Bulung'ur tuman
34-maktab o'qituvchisi Dilbar Meliboyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyaning inson kamolotidagi o'rni va ahamiyati yoritlgan. Tarbiya shaxsning ma'naviy, axloqiy, aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, oilaning, ota-onaning va ta'lim tarbiya jarayonining insonni komil shaxs sifatida shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada tarbiya orqali insonda ezgulik, odb-axloq, mas'uliyat va jamiyatga foydali bo'lish kabi fazilatlar qaror topishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya, oilaviy tarbiya, ma'naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, vatanparvarli, barkamol avlod.

Tarbiya inson shaxsini shakllantiruvchi , uning axloqiy, ma'naviy, aqliy va jismoniy fazilatlarini rivojlantiruvchi uzluksiz jarayondir. Insonning jamiyatda o'z o'rnini topishi, yaxshi-yomonni anglay olishiva mas'uliyatli fuqaro bo'lib voyaga yetishida tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Tarbiya oilada boshlanib, maktab, mahalla va jamiyat tomonidan davom ettiriladi.

Tarbiyaning sosiy maqsadi –har tomonlama barkamol, bilimli, odobli, vatanparvar va mustaqil fikrlaydigan insonni voyaga yetkazishdir. Bunday inson o'z huquq va burchlarini biladi, atrofdagilarga hurmat bilan munosbatda bo'ladi. Hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga intiladi.

Tarbiya faqat nasihat qilish yoki qoidalarni yod oldirishdan iborat emas, u bolaning kundalik hatti-harakati, muomala madaniyati, mehnatga munosabati va mustail qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi.

Oila-tarbiyaning birinchi va eng muhim maskanidir. Bola dastlabki odob, mehr-oqibat, halollik, kattalarga hurmat va kichiklarga g'amx'o'rlik kabi fazilatlarni

oilada o’rganadi. Ota-onaning shaxsiy namunasi farzand tarbiyasida kuchli ta’sirga ega.

Agar oilada o'zaro hurmat, samimiy muloqot va mas'uliyat hukm sursa, bola ham shu muhit ta'sirida ijobiy fazilatlarni egallaydi. Shuning uchun ota-ona farzandiga faqat so’z bilan emas, balki amaliy xatti-harakati bilan ham namuna bo’lishi kerak. Maktabda ta’lim va tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog’liq holda olib boriladi. O’quvchi fanlarni o’zlashtirishi bilan birga intizom, jamoada ishlash, do’stlarga yordam berish va o’z fikrini madaniyatli ifodalashni ham o’rganadi, ustozning bilimdonliligi, adolatliligi, mehribonligi o’quvchi shaxsning shakllanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Ta’lim muassasalarida tarbiya jarayoni o’quvchilarning yosh va qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarda yaxshi odatlarni muntazam takrorlash va rag’batlantirish muhimdir. Tarbiya bir necha muhim yo’nalishlardan tashkil topadi.

- Axloqiy tarbiya- halollik, adolat, vijdonlilik va odob – axloqni shakllantiradi.
- Aqliy tarbiya – bilim olish, mustaqil fikrlash va muammolarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
- Mehnat tarbiyasi – mehnatsevarlik, mas’uliyat va kasbga hurmatni qaror topdiradi.
- Jismoniy tarbiya – sog’lom turmush tarzi, chiniqish va jismoniy faollikni ta’minlaydi.
- Estetik tarbiya- go’zallikni his qilish, san’at vatabiatni qadrlash tuyg’usini rivojlantiradi.
- Vatanparvarlik tabiyasi- Ona Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat va fuqarolik mas’uliyatini kuchaytiradi.

Milliy tarbiya xalqimizning urf-odatlari, an’analri, tili, tarixiva ma’naviy merosiga tayanadi. Kattalarni hurmat qilish, mehmondo’stlik, mehr-oqibat, qo’ni qo’shnichilik va o’zaro yordam kabi qadriyatlar yosh avlod tarbiyasida muhim o’rin tutadi.

Biroq tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlar ham uyg'unlantirilishi kerak. Bag'rikenglik, inson huquqlarini hurmat qilish, tinchliksevarlik va tabiatga g'amxo'rlik zamonaviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridir.

Bugungi kunda bolalar internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli axborot manbalari ta'sirida ulg'aymoqda. Shu sababli ularga axborotni to'g'ri tanlsh, yolg'on ma'lumotni ajratish va internetdan xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini berish zarur. Zamonaviy tarbiya bolani taqiqlar bilan cheklash emas, balki unga ongli tanlov qilishni o'rgatishdan iborat bo'lishi kerak. Ota-onalar va pedagoglar bolaning fikrini tinglashi, uning qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashi va xatolarni to'g'ri tushuntirishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya- oila, maktab va jamiyatning umumiy mas'uliyatini talab qiladigan murakkab, ammo nihoyatda muhim jarayondir. Yaxshi tarbiya olgan inson bilimini ezgu maqsadlar yo'lida ishlatadi, arofdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'ladi va jamiyat ravnaqiga xizmat qiladi.

Shuning uchun har bir ota-ona, ustoz va jamiyat a'zosi yosh avlod tarbiyasiga befarq bo'lmasligi kerak. Zero, bugungi tarbiya ertangi kunningma'naviy, ilmiy va ijtimoiy qiyofasini belgilaydi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, tarbiya inson hayotidagi eng muhim masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Avloniy. Turkey guliston yoxud axloq- Toshkent. 1992.
2. N.N. Azizxo'jayeva. Pedagogic texnologiya va pedagogik mahorat.- Toshkent 2020.
3. Mavlonova R., To'rayeva O,. Holiqberdiyev K,. Pedagogika- Toshkent. O'qituvchi. 2001
4. A. Munavvarov. Pedagogika- Toshkent. 1996
5. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.- Toshkent 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi. "Yoshlarga oid davlat siyosatito'g'risidagi Qonun. Toshkent 2006.

7. Pedagogika ensiklopediyasi.- Toshkent. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015.
8. O’zbek pedagogika tarixi. Toshkent. Fan. 1997.
9. Tarbiya jarayoniningmohiyati va mazmuni. Tarbiyaviy. Uz electron ta’lim materiali.